



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 9-avgust, № 160 (8783)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON STRATEGIK SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARI RIVOJIDA TARIXIY VOQEA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat tashrifi bilan Qozog'iston Respublikasida bo'lib turibdi.



Ostona shahridagi Oqo'rdagi qarorgohida 8-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo'lib o'tdi.

Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi. O'zbekiston va Qozog'iston davlat madhiyalari yangradi. Ikki mamlakat yetakchilari faxriy qorovul safi oldidan o'tdilar.

Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning tor doiradagi uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, ushbu davlat tashrifi tarixiy ahamiyatga ega ekanini, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilganini ta'kidladi.

Keyingi yillarda tovar ayirboshlash hajmi ikki barobar, qo'shma korxonalar soni besh barobar ko'paydi, yuk tashish hajmi ortmoqda, yirik kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Yoshlar siyosati va axborot maydonini shakllantirish sohasida yaqin hamkorlikni

rivojlantirish zarurligi ta'kidlandi. Bu yo'nalishda kompleks hamkorlik dasturini tayyorlashga kelishib olindi.

Ikki mamlakat parlamentlari palatalari ishtirokida Parlamentlararo forum tashkil etilishi qo'llab-quvvatlandi.

Tovar ayirboshlash hajmini, eng avvalo, o'zaro bozorlarni shakllantirish va uchinchi mamlakatlardan importning o'rnini bosish hisobiga yanada oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Shu ma'noda, hukumatlarga oy yakuniga qadar tovar ayirboshlash hajmini 10 milliard dollarga yetkazish bo'yicha alohida dastur qabul qilish topshirildi.

Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish maqsadida joriy sammitga qadar umumiy qiymati 7 milliard dollarlik yangi bitim va shartnomalar portfeli ishlab chiqildi.

Ular orasida energetika, transport va logistika, metallurgiya, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi va qurilish sohaslarida, shuningdek, hududlar o'rtasidagi loyihalar bor.

Sirdaryo viloyatida Xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazi qurilishini jadallashtirish

va u yerda korxonalarini joylashtirishga kelishib olindi.

Yirik loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida Qo'shma investitsiya jamg'armasini tashkil etish masalasi o'rganiladi.

Tranzit yuk tashish uchun qulay sharoitlarni ta'minlash, qo'shma logistika majmualarini qurish, ikki mamlakat o'rtasida avtomobil va temir yo'l yo'nalishlarini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Davlat rahbarlari tomonlarni qiziqirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

Shundan so'ng Oqo'rdagi qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev raisligida Davlatlararo oliy kengashning birinchi majlisi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Qozog'iston rahbari va xalqiga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirdi hamda bu kun O'zbekiston – Qozog'iston hamkorligi tarixida alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidladi.

– Bugun biz Davlatlararo oliy kengashning

birinchi majlisini o'tkazmoqdamiz. Bu mamlakatlarimiz o'rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari rivojida tarixiy voqea hisoblanadi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

So'nggi yillarda O'zbekiston – Qozog'iston munosabatlarini yuqori sur'atda rivojlangani alohida qayd etildi.

Tashrif doirasida Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar kengashi yig'ilishlari, biznes forumi, siyosiy maslahatlashuvlar, tahliliy markazlar forumi, intellektual o'yinlar muvaffaqiyatli o'tkazildi. Kino kunlari, ko'rgazmalar, konsertlar va boshqa ko'plab tadbirlar davom etmoqda.

Ikki mamlakat rahbarlari 2024 – 2034-yillarga mo'ljallangan strategik sheriklik va ittifoqchilik dasturi qabul qilinganini mamnuniyat bilan qayd etdilar. Bu dastur O'zbekiston – Qozog'iston do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarida yangi sifat bosqichi boshlanganini anglatadi.

Majlis davomida davlatimiz rahbari bir qator ustuvor vazifalarni ko'rsatib o'tdi.

Avvalo, xalqaro tuzilmalar doirasida pozitsiyalarni muvofiqlashtirish va umumiy manfaatlarini samarali ilgari surish muhimligi ta'kidlandi.

Muloqotlar natijadorligini oshirish, Parlamentlararo forumni ta'sis etish, Ekspertlar kengashining qizg'in ishini davom ettirish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Tovar ayirboshlash hajmini yaqin yillarda 10 milliard dollarga yetkazish imkoniyatlari atroficha muhokama qilindi. Shu maqsadda oy oxirigacha alohida dastur qabul qilindi. Bunda bozorlarni o'zaro shakllantirish, mavjud cheklolarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratiladi.

Mamlakatimiz yetakchisi sanoat kooperatsiyasining yangi strategiyasini qabul qilish zarurligini ta'kidladi.

Tomonlar kecha bo'lib o'tgan biznes forumi va ishbiarmonlik uchrashuvlari yakunlari bo'yicha 7 milliard dollarlik salmoqli kelishuvlar imzolanganini ijobiy baholadilar.

Gap energetika, logistika, qurilish, kimyo, elektrotexnika, to'qimachilik, agrosanoat va boshqa sohalardagi hamkorlik haqida bormoqda.

Xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazini ishga tushirishni jadallashtirish va istiqbolli loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun qo'shma jamg'arma tashkil etish masalasini o'rganishga kelishib olindi.

Iqtisodiy hamkorlikning haqiqiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan hududlar o'rtasidagi aloqalar strategik sheriklikning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

Forumni barcha viloyatlar va markaziy shaharlarni qamrab olgan holda Hududlar kengashiga aylantirish va uning birinchi yig'ilishini kuzda Samarqandda o'tkazishga qaror qilindi. Hukumatlarga aniq kelishuvlarga erishish

uchun hududlarga o'zaro tashriflar jadvalini tasdiqlash topshirildi.

Energetika quvvatlari va infratuzilmasini qurish, muqobil energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha loyihalarni birgalikda amalga oshirishga tayyorlik bildirildi. Yirik mintaqaviy loyihalarni, eng avvalo, "Qambarota" GES qurilishini tayyorlash ishlari jadallashtirildi.

Transport va tranzit sohasida ishbiarmon doiralarni jalb etgan holda ikki mamlakat o'rtasida yangi transport yo'laklarini qurish loyihalari ishlab chiqishga kelishib olindi. Bundan tashqari, zamonaviy logistika infratuzilmasini yaratish ishlari kuchaytirish muhimligi ta'kidlandi.

Mintaqada suvdan foydalanish masalalariga yagona yondashuv mavjudligi qayd etildi. Ishonchli huquqiy bazani shakllantirish, suv xo'jaligi obyektlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish ishlari davom ettiriladi.

Madaniyat, ta'lim, yoshlar va turizm sohaslaridagi almashinuvlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

– Shu kunlarda Ostona O'zbek kinosi kunlari, ko'rgazmalar, festivallar, konsertlar o'tkazilmoqda. "Zakovat" intellektual o'yini muvaffaqiyatli o'tdi. Bunday tadbirlar yoshlarimizni yanada yaqinlashtiradi, ularni umumiy tariximiz va qadriyatlarimiz bilan yaqindan tanishtiradi, – dedi davlatimiz rahbari.

Madaniy-gumanitar hamkorlik bo'yicha 2024-2025-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasini ham bunga xizmat qiladi.

Tomonlar Markaziy Osiyoda integratsiya va hamkorlikni chuqurlashtirish tarafdori ekanliklarini tasdiqladi. Ta'kidlanganidek, Maslahat uchrashuvi mintaqada oldida turgan vazifalarni birgalikda hal etish va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan mintaqaviy kun tartibini ishlab chiqishning samarali mexanizmi aylandi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi va boshqa tuzilmalar doirasida yaqin va ochiq muloqotni davom ettirishga tayyorlik bildirildi.

Muzokaralar yakunida Shavkat Mirziyoyev Qosim-Jomart Toqayevni Davlatlararo oliy kengashning ikkinchi majlisini o'tkazish uchun O'zbekistonga tashrif bilan kelishga taklif etdi.

Tashrif dasturi doirasida Ostona shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Qozog'iston Respublikasining "Oltin Qiron" ("Oltin burgut") ordeni bilan taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Qardosh mamlakatning oliy davlat mukofotini O'zbekiston yetakchisiga Prezident Qosim-Jomart Toqayev tantanal ravishda topshirdi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

ALISHER NAVOIY HAYKALI — KO'P ASRLIK DO'STLIK NAMUNASI



Aks sado

Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy haykalining ochilishi qardosh o'zbek va qozoq xalqlari o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlikning naqadar teran hamda ahamiyatli ekanini aks ettiruvchi ramziy voqeadir. Mamlakatlarimiz tarixi sahifalarida muhim o'rin tutuvchi ushbu tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog'istonga davlat tashrifi doirasida bo'lib o'tdi.

Alisher Navoiyning ijodiy salohiyati Markaziy Osiyodagi ko'plab xalqlar adabiyoti va falsafasida o'z aksini topib, bugungi kunga qadar donolik hamda ilhom ramzi bo'lib kelmoqda. Buyuk shoirning gumanistik g'oyalarga boy asarlari xalqlarni birlashtirishda davom etmoqda, o'zaro hamjihatlik va hamkorlikni mustahkamlashga hissa qo'shmoqda.



ULUG'BEK RASHITOV VA HASANBOY DO'SMATOV — OLIMPIYA O'YINLARINING IKKI KARRA G'OLIBLARI

Xushxabar



Parij shahrida davom etayotgan XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlarida navbatdagi kun musobaqalari O'zbekiston sport delegatsiyasi uchun quvonchli xabarlarga boy bo'ldi. Gap shundaki, -68 kg. vazn toifasidagi taekvondochimiz, "Tokio — 2020" Olimpiadasi g'olibi Ulug'bek Rashitov va "Rio — 2016" g'olibi, bokschimiz Hasanboy Do'smatov Olimpiya o'yinlarida yana bir bor muvaffaqiyat qozonib, oltin medallarni qo'lga kiritishdi. Ular shu tariqa Olimpiya o'yinlarining ikki karracha chempioni sifatida O'zbekiston sporti tarixiga kirdi.



O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON STRATEGIK SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARI RIVOJIDA TARIXIY VOQEA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Davlatimiz rahbari ko'p millatli O'zbekiston xalqi nomidan samimiy minnatdorlik bildirib, bunday yuksak mukofot ikki xalqning ko'p asrlik chinakam do'stlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalarini mustahkamlash bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlarga berilgan baho, shuningdek, O'zbekiston va Qozog'iston munosabatlari yangi tarixiy bosqich – strategik sheriklik va ittifoqchilik darajasiga olib chiqish sari mustarak intilishlarning e'tirofi ekanini ta'kidladi.

"Oltin Qiron" oliy ordeni bilan davlat arboblari Qozog'iston bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlashga qo'shgan ulkan hissasi uchun taqdirlanadi.

Ikki tomonlama muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev Olmaota shahrida "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti" milliy tadqiqot universiteti hamda Chirchiq shahrida M. Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston davlat universitetining filiallarini tantanal ravishda ochdilar.

O'zbek va qozog' oliygohlari filiallarining o'zaro ochilishi ikki qardosh mamlakat o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarning jadal rivojlanayotganidan yana bir dalolat bo'ldi.

Mazkur ta'lim muassasalarida talab yuqori bo'lgan texnik yo'nalishlar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlanadi.

O'zbekiston va Qozog'iston yetakchilari Sian – Xorg'os – Olmaota – Sariyog'och – Toshkent yo'nalishi bo'yicha birinchi yuk poyezdining yetib kelishiga bag'ishlangan marosimda ham ishtirok etdilar.

Yuk poyezdi Sian shahridagi Qozog'iston – Xitoy terminalidan "Xorg'os" quruq portiga yo'l oldi. U yerda konteynerlar qayta otildi va Qozog'iston temir yo'llari bo'yab "Sariyog'och"

stansiyasi orqali so'nggi manzilga – "Toshkent" stansiyasiga jo'natildi.

Ushbu yo'nalish yuk tashish vaqtini qisqartirib, savdo hajmini oshirishga kuchli turki beradi.

Davlatlararo oliy kengashning birinchi majlisi yakunida ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev Qo'shma bayonot hamda Davlatlararo oliy kengashning 2024 – 2034-yillarda strategik sheriklik va ittifoqchilik dasturini tasdiqlash va Tashqi ishlar vazirlari kengashini tuzish to'g'risidagi qarorlarini imzoladilar.

Tashrif doirasida ikki tomonlama hamkorlikning keng ko'lami masalalarini qamrab olgan hujjatlar to'plami qabul qilindi. Bular, jumladan:

- Davlat chegarasi rejimi to'g'risidagi hukumatlararo bitim;
- Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlari va xalqaro avtomobil qatnovi to'g'risidagi hukumatlararo bitimlarga qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi bayonnomalar;
- 2024-2025-yillarda madaniy-gumanitar hamkorlik bo'yicha hukumatlararo tadbirlar rejasini;
- Qishloq xo'jaligi sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitim;
- Sog'liqni saqlash sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitim;
- Iqtisodiyot vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi bayonnomalar;
- Tabiiy monopoliyalarni tartibga solish va raqobat siyosati sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bayonnomalar;
- O'zbekiston – Qozog'iston Ekspertlar kengashini ta'sis etish to'g'risidagi memorandum;
- O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va do'stlik aloqalari qo'mitasi va Qozog'iston Respublikasi Otandastar jamg'armasi o'rtasida o'zaro

anglashuv to'g'risida bitim;

– 2024 – 2026-yillarda Toshkent shahar hokimligi va Ostona shahar hokimligi o'rtasida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni kengaytirish bo'yicha amaliy harakatlar rejasini.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bo'lib o'tgan muzokaralar yakunlariga izoh berdilar.

O'zbekiston rahbari birgalikdagi tizimli va amaliy sa'y-harakatlar tufayli O'zbekiston – Qozog'iston hamkorligini ittifoqchilik munosabatlari dek eng yuqori bosqichga olib chiqishga erishilganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

– Biz ko'p qirrali munosabatlrimizda yangi sahifa ochdik – Davlatlararo oliy kengashning birinchi majlisini o'tkazdik. Ushbu format davlatlararo hamkorlikning eng yuqori darajasi ifodasi bo'lib, mamlakatlarimiz va xalqlarimizning yaqin aloqalari, ularning barcha yo'nalishlarda hamkorlikni mustahkamlashga qat'iy intilishini yaqqol namoyon etadi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Muzokaralar chog'ida parlamentlarning ikki palatasi ishtirokida Parlamentlararo forum tashkil etish masalasi ko'rib chiqildi. Hamkorlikning yana bir yangi shakli – Tashqi ishlar vazirlari kengashini ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Savdo, sanoat kooperatsiyasi, energetika, transport, qishloq va suv xo'jaligi, madaniyat sohasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish bo'yicha aniq kelishuvlarga erishildi.

Qo'shma bayonot imzolandi hamda har tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan 2024-2034-yillarga mo'ljallangan Strategik sheriklik va ittifoqchilik dasturi qabul qilindi.

Muzokaralarda hududlararo aloqalarni faollashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Yetakchilar ikki mamlakatning barcha viloyatlarini jalb qilgan holda Hududlararo hamkorlik forumini Hududlar rahbarlari kengashiga aylantirish tashabbusini ilgari surdilar.

Oy yakuniga qadar tovar ayirboshlash hajmini keskin oshirishga qaratilgan kompleks dastur qabul qilindi. Tomonlar, shuningdek, yangi investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun Xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazi qurilishini tezlashtirishga kelishib oldilar.

Bundan tashqari, ustuvor yo'nalishlardagi qo'shma loyihalarni moliylashtirish maqsadida O'zbekiston – Qozog'iston investitsiya fondini tashkil etish masalasi ko'rib chiqildi.

Muzokaralar kun tartibidan transport va logistika sohasidagi hamkorlikni kengaytirish masalalari muhim o'rinni egalladi. Yuk tashish hajmini oshirish uchun maksimal darajada qulay shart-sharoitlarni yaratish, avtomobil va temir yo'llarni qurish va modernizatsiya qilishni jadallashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Yana bir strategik yo'nalish – oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash. Ikki mamlakat hududida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yetkazib berish bo'yicha aniq kelishuvlarga erishildi.

Suvdan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi.

Transchegaraviy suv resurslaridan birgalikda foydalanish masalalarida yaqin hamkorlikni davom ettirishga kelishib olindi.

Madaniyat, yoshlar, turizm, fan, ta'lim va sport sohasidagi hamkorlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

Tomonlar mintaqaviy va xalqaro platformalar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, SHHT, MDH, Turkiy davlatlar

tashkiloti, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralarini bo'yicha kengash, "Markaziy Osiyo plyus" formatlari doirasidagi tashabbuslarni o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom ettiradilar.

9-avgust kuni Ostona shahrida bo'lib o'tadigan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvi iqtisodiy integratsiya va butun mintaqaning jadal rivojlanishiga kuchli sur'at bag'ishlashi alohida ta'kidlandi.

Yakunda Shavkat Mirziyoyev davlat tashrifi yakunlari va erishilgan kelishuvlar O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi do'stlik va yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari har tomonlama mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

Shundan so'ng O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev Ostona shahrida o'zbek xalqining buyuk farzandi, shoir va mutafakkir Alisher Navoiy haykalini tantanal ravishda ochdilar.

Davlatimiz rahbari Qosim-Jomart Toqayevning Alisher Navoiy haykalini o'rnatish tashabbusi uchun samimiy minnatdorlik bildirib, Qozog'iston poytaxti markazida muhtasham yodgorlik bunyod etilgani qozog' xalqining qardosh O'zbekistonga bo'lgan chuqur hurmatining yorqin ifodasi ekanini ta'kidladi.

Buyuk faylasuf va insonparvar shoir Alisher Navoiyning ijodiy merosi nafaqat o'zbek xalqiga, balki butun dunyoga tegishli noyob boylikdir. Navoiy asarlari XVI asrdayoq italyan va nemis tillariga tarjima qilingan bo'lsa, bugungi kunda dunyoning daryolari barcha tillarida yangramoqda. Asrlar davomida hayotning o'ziga xos ensiklopediyasi bo'lgan uning ijodi millionlab insonlarni hayratga solib, ruhlantirib kelmoqda, – dedi O'zbekiston Prezidenti.

Hazrat Alisher Navoiyning ulkan xizmati shundaki, u o'zbek adabiyotining va o'zbek adabiy tilining asoschisidir.

Haykali Toshkentning markaziy maydonlaridan birini bezab turgan qozog' xalqining buyuk farzandi, qozog' adabiyotining mumtoz namoyandasi Abay Qo'nonboyev Sharqning boshqa buyuk shoirlari qatori Alisher Navoiyni ham o'zining ustosi deb bilgan.

Navoiy va Abay ijodi abadiyat, do'stlik, muhabbat va sadoqat she'riyatidir. Ularning falsafiy qarashlari millatning ma'naviy yuksalishida bebaho manba hisoblanadi.

2020-yilda marhum qozog' shoiri Nesipbek Aytuli Alisher Navoiyning eng muhim asari – "Xamsa"ni qozog' tiliga tarjima qilib, nashr etdi va ushbu kitobga so'zboshi shaxsan Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev tomonidan yozildi.

– Ishonchim komilki, Alisher Navoiy haykali ikki xalq o'rtasidagi do'stlik va qardoshlik rishtalarining yana bir yorqin ramziga aylanadi, uning merosi esa yana ko'plab avlodlarni buyuk yutuqlarga ilhomlantiradi, – dedi so'zining yakunida O'zbekiston Prezidenti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ostona shahrida tashrifi doirasida Markaziy Osiyo va Ozarbayjon san'at ustalarining "Do'stlik kechasi" tantanal konsertida ishtirok etdi.

Tadbirda Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, sammitning faxriy mehmoni Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev ham qatnashdi.

Folklor-etnografik ansambllar va estrada san'atkorlarining rang-barang chiqishlari, milliy qo'shiq va raqslar xalqlarimizning mushtarakligi va madaniy yaqinligini yaqqol namoyon etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog'iston Respublikasiga davlat tashrifi davom etmoqda.

O'ZA.

O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlarining birgalikdagi sa'y-harakatlari natijasida Markaziy Osiyo xalqaro diplomatiya, siyosiy faollik va iqtisodiy taraqqiyotning yangi markaziga aylandi

Xorijiy ekspertlar O'zbekiston Prezidenting Qozog'istonga davlat tashrifi haqida

Shu kunlarda Ostona shahrida kechayotgan muhim siyosiy voqealar xalqaro ijtimoiy-siyosiy, ishbilarmon va ekspert doiralari vakillarining yuqori qiziqishiga sabab bo'lmoqda.

Xalqaro ekspertlarining ta'kidiga ko'ra, O'zbekiston va Qozog'iston yetakchilari Shavkat Mirziyoyev va Qosim-Jomart Toqayev o'rtasidagi muloqot mintaqada davlatlarining sa'y-harakatlarini yanada birlashtirish, o'zaro sheriklikni kengaytirish, shuningdek, kuchli xalqaro hamkorlar bilan munosabatlarni mustahkamlashga bo'lgan yuqori intilishni yaqqol namoyon etdi.

Tashrif dasturi doirasida Ostona shahrida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Qozog'istonda "Oltin Qiron" ("Oltin burgut") ordeni bilan taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Mukofot Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev tomonidan davlatimiz rahbariga mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlashga qo'shgan ulkan hissasi uchun topshirildi.

Dunyo nigohi

Roy Entoni ROJERS, Malaya universiteti qoshidagi Osiyo va Yevropa instituti direktori o'rinbosari (Malayziya):



– O'zbekiston va Qozog'iston yetakchilari o'rtasidagi mustahkam tarixiy aloqalar hamda shaxsiy do'stona munosabatlar tufayli o'zbek – qozog' munosabatlarning bugungi holati alohida dinamika, o'zaro tushunish va ishonchning yuksak darajasi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Prezidentining Qozog'istonga ushbu tashrifi nafaqat ikki mamlakat xalqlari, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi ravnaqi uchun ham tarixiy ahamiyatga ega, deb hisoblayman.

Tashrif O'zbekiston – Qozog'iston do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlari yana bir muhim bosqich bo'ldi. Davlatlararo oliy kengashning birinchi majlisi bo'lib o'tdi. Shuningdek, kengashning 2034-yilgacha strategik sheriklik va ittifoqchilik dasturi qabul qilindi, o'zaro hamkorlikning yangi formati – Tashqi ishlar vazirlari kengashi tashkil etildi.

Savdo-iqtisodiy aloqalar ham alohida e'tiborga loyiqdir. Keyingi yillarda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi ikki barobar, qo'shma korxonalar soni 5 barobar ortdi, yirik hamkorlik loyihalari amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, tomonlar bugun ustuvor yo'nalishlar bo'yicha qo'shma loyihalarni moliylashtirish maqsadida O'zbekiston – Qozog'iston investitsiya jamg'armasini tashkil etish masalasi ko'targanlari ham e'tiborga molik. Erishilgan kelishuvlar yaqin yillarda yuk tashish hajmlarini oshirish, avtomobil va temir yo'llarini qurish hamda modernizatsiya qilishni jadallashtirish, tovar ayirboshlash hajmini 10 milliard dollarga yetkazish imkonini beradi.

Vladimir GALPERIN, Latviyadagi O'zbekiston savdo uyi direktori:

– Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Qosim-Jomart Toqayevning birgalikdagi sa'y-harakatlari natijasida Markaziy Osiyoda mutlaqo yangi siyosiy



muhim shakllandi. Mintaqa xalqaro diplomatiya, siyosiy faollik va iqtisodiy rivojlanishning yangi markaziga aylandi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston Prezidentining Qozog'istonga tashrifi hamda Ostona shahrida ikki tomonlama strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada mustahkamlashga oid dolzarb masalalar muhokama etilgani mamlakatlar o'rtasidagi har tomonlama hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

O'zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish, iqtisodiyotning muhim tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, transport va energetika sohasidagi infratuzilma loyihalarini ijrosini ta'minlash, shuningdek, gumanitar almashinuv dasturlarini faollashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu, birinchi navbatda, ikki mamlakat xalqlari manfaatlariga to'liq mos keladi.

O'zbekiston va Qozog'iston eng global muammolarni birgalikda hal eta oladigan mintaqaning asosiy iqtisodiyotlari hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston – Qozog'iston munosabatlaring izchil rivojlanishi butun Markaziy Osiyo mintaqasidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'sishda ham o'z ifodasini topmoqda.

Aleksandr VOROBYOV, Rossiya Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi:

– O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi munosabatlari Markaziy Osiyo mintaqasi uchun tizimli shakldir. Shu bois O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlari o'rtasidagi muzokaralar nafaqat ikki tomonlama munosabatlar, balki butun mintaqacha uchun katta ahamiyatga ega.

Shubhasiz, muzokaralar natijasida Toshkent va Ostona o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar, transport-logistika, energetika, shuningdek, ikki davlat uchun muhim bo'lgan muammolarni hal qilish, xususan, suvdan foydalanishda hamkorlikni yanada mustahkamlash yo'nalishi davom ettiriladi. Shu bilan birga, mintaqada ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish bo'yicha yetakchi tashabbus bugun, birinchi navbatda, o'z mahsuloti savdosini kengaytirish va



Nasri AL-SAAIDI, "Premium Construction" kompaniyasi boshqaruvchi hamkori (Qatar):

– Ushbu tashrif ikki mamlakat o'rtasidagi ittifoqchilik, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlari mustahkamlash yo'lidagi navbatdagi muhim qadam bo'ldi.

So'nggi yillarda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi aloqalar misli ko'rimagan darajaga ko'tarilib, konstruktiv va o'zaro manfaatli sheriklikning mukammal namunasi namoyish etmoqda.

Ikki mamlakat yetakchilari xalqaro hamkorlikning tobora ommalashib borayotgan mexanizmlariga aylanib borayotgan Maslahat uchrashuvlari va "Markaziy Osiyo plyus" platformalari orqali mintaqani birlashtirish va sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish tarafdori hisoblanadi. Ular global va mintaqaviy siyosat masalalarida ham bir-birlarini faol qo'llab-quvvatlab kelayotir.

Qozog'iston O'zbekistonning eng yirik tashqi savdo hamkorlaridan biri sanaladi. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi barqaror o'sib bormoqda va 2023-yilda 4,5 milliard dollarga yetdi. O'zbekistonda qozog' kapitali ishtirokidagi korxonalar va Qozog'istondagi o'zbek kompaniyalari soni ham ortdi. Shuningdek, investitsiya, sanoat, qishloq xo'jaligi, energetika, farmatsevtika, qurilish sohaslarida ikki tomonlama hamkorlik kengaymoqda.

O'zbekiston va Qozog'iston yaxshi qo'shni davlatlar sifatida butun Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik-farovonlikni ta'minlashga salmoqli hissa qo'shyapti.

Bugun butun dunyo mintaqada qulay siyosiy muhit yaratilganini, Markaziy Osiyo rivojlangan, barqaror, investitsiya va hamkorlik uchun jozibador manzilga aylanib borayotganini e'tirof etmoqda. Mintaqaviy va hatto mintaqalararo aloqalarni kengaytirish uchun keng imkoniyatlar vujudga kelayotir. "Dunyo" AA.

ALISHER NAVOIY HAYKALI – KO'P ASRLIK DO'STLIK NAMUNASI



Bolat TILEP, Abay nomidagi Qozog' milliy pedagogika universiteti rektori:

– Mamlakatlarimiz madaniy hayotida muhim voqea – Ostona o'zbek xalqining buyuk shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy haykalining ochilishiga



guvoh bo'ldik. Mir Alisher Navoiy – turkiy xalqlarning ma'naviy taraqqiyotiga chuqur ta'sir ko'rsatgan ulug' shoir va faylasuf. Uning asarlari va g'oyalari madaniyatlararo muloqot, o'zaro hamjihatlik uchun munosib asos bo'lib xizmat qiladi.

Yaqinda universitetimizda Alisher Navoiy markazi tashkil etilganidan faxrlanamiz, o'ylaymanki, bu joy ulug' shoirning ijodini o'rnatish va ommalashtirishning o'ziga xos platformasiga aylanadi. Markaz talabalar va olimlar o'rtasida madaniy aloqalarni mustahkamlashga, bilim va g'oyalarni almashinuviga, Alisher Navoiy merosiga bag'ishlangan konferensiyalar, seminarlar o'tkazilishiga yordam beradi.

Ostonada Alisher Navoiy haykalining ochilishi va Olmaotada, ya'ni bizning universitetimizda Sharqning buyuk mutafakkiri hayoti va ijodini o'rnatishga bag'ishlangan markazning tashkil etilishi – bulking barchasi umumiy madaniy merosimizni saqlash hamda rivojlantirishga intilish yo'lidagi birlashtiruvchi qadamlardir. Ishonamizki, bunday e'zgu tashabbuslar xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikni yanada mustahkamlaydi.

Alisher SATVALDIYEV, Qozog'iston Respublikasi Parlamenti Senati deputati:

– Qozog'iston poytaxtida o'zbek xalqining asl farzandi Alisher Navoiy haykalining ochilishi, avvalambor, uning ijodiy merosiga hurmat ramzi hisoblanadi. Bu tarixiy voqea Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi madaniy, ma'naviy aloqalarni mustahkamlashga qo'shilgan muhim hissdadir.

Xalqlarimizni nafaqat geografik jihatdan yaqinlik, balki ko'p asrlik do'stlik, umumiy tarixiy ildizlar birlashtiradi. Qozog'lar va o'zbeklar hamisha bir-birini qo'llab-quvvatlab kelgan, bu hamkorlik hozir ham davom etmoqda hamda tinch va samarali hamjihatlik uchun asos yaratmoqda.

Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi parlamentlararo aloqalar



Qayrat SAQ, L. N. Gumilyov nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti siyosatshunoslik va jurnalistika fakulteti dekani:



– Alisher Navoiy asarlari o'z davridan tortib shu kungacha hal-hanuz dolzarb bo'lib, ko'plab avlodlar uchun ilhom bag'ishlab kelmoqda. Ulug' mutafakkir do'stlik, insoniylik va o'zaro tushunish g'oyalari orqali xalqlarni birlashtirgan. Uning merosi xalqlarimiz o'rtasidagi madaniy va tarixiy aloqalar ko'p asrlik tarixga ega ekanini esga soladi, zamonaviy hamkorlik hamda yaqin

hamkorligimizda muhim elementdir. Qo'shma tashabbuslar va qonunchilik loyihalari turli sohalarda, iqtisodiyotdan madaniyatgacha bo'lgan aloqalarni mustahkamlashga hissa qo'shmoqda, ikki tomonlama munosabatlarni faollashtirishga va mamlakatlarimiz oldidagi umumiy vazifalarni hal etishga yordam beradi.

qo'shnichilik munosabatlari mustahkamlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Qozog'iston poytaxtida o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy haykalining ochilishi butun mintaqamiz uchun muhim va ramziy voqeadir. Shoirning ulug'vor haykali uning umumiy tariximizdagi eng muhim shaxslardan biri sifatidagi rolini hurmat va e'tirof etish ramzidir.

Ishonamizki, ham tarixiy, ham ma'naviy ushbu voqea Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi qardoshlik rishtalarini mustahkamlashda yangi bosqich bo'ladi, yosh olimlarimiz o'rtasidagi ilmiy va madaniy almashinuvlarni yanada rivojlantirishga ilhomlantiradi.

Nurlan USMONOV ("Xalq so'zi") yozib oldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim hujjat

Keyingi yillarda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan va suv resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yangi qonun

Shu bilan birga, yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirish, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ikkilamchi ijaraga berish imkoniyatlarini kengaytirish, pillachilik va tutchilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklariga, agrosanoat klasterlariga va boshqa yuridik shaxslarga yer uchastkalari ajratilishining huquqi asoslarini belgilash, shuningdek, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar tomonidan yerlardan foydalanish shartlarini qayta ko'rib chiqish zarurati mavjud edi.

Prezidentimiz tomonidan shu yil 17-iyul kuni imzolangan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga, Yer kodeksiga va "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga yer uchastkalaridan samarali foydalanish hamda pillachilik va tutchilikni yanada rivojlantirish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish imkoniyatlarini kengaytirishga, shuningdek, yer uchastkalaridan va suv resurslaridan foydalanishda qonun ustuvorligini mustahkamlashga oid o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining **Yer kodeksiga:**

– qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni ikkilamchi ijaraga berishga oid moddaga (242-modda) tegishli

o'zgartirish kiritilib, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkasi **bir yilgacha bo'lgan muddatga**, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarining **dala chetlaridagi kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlari** esa qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish uchun **o'n yilgacha bo'lgan muddatga** ikkilamchi ijaraga berilishi mumkinligi belgilandi;

– yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi **mulkdorining majburiyatlari (40-modda)** qatoriga quyidagilar qo'shimcha qilindi:

a) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarining dala chetlaridagi kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarda maqbul ekinlar ekilishini yoki tu ko'chatlari o'tqazilishini ta'minlash;

b) asosiy ekinlarning rivojlanishiga salbiy ta'siri bo'lmagan hollarda bog'lar va tokzorlarning qator oralariga daromad keltirishi mumkin bo'lgan maqbul ekinlar ekilishini ta'minlash;

– pillachilik va tutchilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklariga, agrosanoat klasterlariga va boshqa yuridik shaxslarga maydoni o'n gektargacha bo'lgan bo'sh turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalari ajratilishi mumkinligi to'g'risidagi qo'shimcha kiritildi (461-modda).

O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuniga:

– yerdan foydalanish normalariga (13-modda) tegishli qo'shimcha kiritilib, fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkasining dala chetlaridagi kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlar o'n yilgacha bo'lgan muddatga ikkilamchi ijaraga berilishi (uchinchi shaxslarga berish huquqsiz) mumkinligi belgilandi;

– fermer xo'jaligining qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarining dala chetlaridagi kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlar o'n yilgacha bo'lgan muddatga ikkilamchi ijaraga berish huquqi (16-modda), shuningdek, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarining dala chetlaridagi kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarda maqbul ekinlar ekilishini yoki tu ko'chatlari o'tqazilishini ta'minlash, asosiy ekinlarning rivojlanishiga salbiy ta'siri bo'lmagan hollarda bog'lar va tokzorlarning qator oralariga daromad keltirishi mumkin bo'lgan maqbul ekinlar ekilishini ta'minlash (17-modda) kiritildi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga quyidagi o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritildi:

– Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish xizmatidagi ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarini ko'rib chiqishga doir vakolatlari qayta tahrirlandi (2457-modda);

– Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat

qilish inspeksiya organi faoliyatini tartibga solishni nazarda tutuvchi yangi 2457¹-modda kiritildi (Inspeksiya nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarini ko'rib chiqish va ma'muriy jazolarni qo'llashga inspeksiya boshlig'i va uning o'rinbosarlari, inspeksiyaning bo'lim boshliqlari, inspeksiya hududiy boshqarmalarining boshliqlari hamda ularning bo'lim boshliqlari haqidir).

Mazkur qonunning qabul qilingani natijasida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan samarali foydalanish ta'minlanib, har bir gektar maydon hisobiga yetishtiriladigan mahsulot hajmi oshadi va natijada oziq-ovqat xavfsizligi yanada mustahkamlanadi. Jumladan, respublika bo'yicha jami 60 ming gektarga yaqin, shundan 35 ming gektarga yaqin dala chetlari va 24 ming gektardan ortiq kanal-kollektor (drenaj) atrofidagi yerlar hisobiga 300 ming tonnadan ortiq qo'shimcha mahsulot olish imkoniyati yaratiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport hajmi oshadi va aholi uchun qo'shimcha daromad manbai paydo bo'ladi.

Shuningdek, yerlardan samarali foydalanish maqsadiga ijara shartnomasi asosida talabgorlarga yer berish orqali aholi bandligini ta'minlash imkoni yaratiladi. Ushbu qonun yer uchastkalaridan samarali foydalanish hamda pillachilik va tutchilikni yanada rivojlantirish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish imkoniyatlarini kengaytirishga, shuningdek, yer uchastkalaridan va suv resurslaridan foydalanishda qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Risqul SIDDIQOV, Oliy Majlis Senatining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari.

Dolzarb mavzu TOBORA GAZAK OTAYOTGAN MUAMMO

Yoshlar o'rtasida giyohvandlik va psixotrop moddalar iste'molining oldini olish bo'yicha qanday choralar ko'rilmogda?

Giyohvandlik butun dunyoda keng jamoatchilikni tashvishga solayotgan eng dolzarb muammolardan biridir. Zero, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish bo'yicha jinoyatlarining ijtimoiy xavflilik darajasi juda yuqori.

Narkotik va psixotrop moddalarni iste'mol qilishning ortishi, birinchi navbatda, og'ir kasalliklarning kelib chiqishi va jinoyatlar sodir etilishining ko'payishiga sabab bo'ladi.

Senatning Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tomonidan yoshlar o'rtasida giyohvandlik va psixotrop moddalar iste'moli holati bo'yicha o'rganishlar olib borildi. Afsuski, o'rganish sarhisobi biz uchun xavotirli natijalarni ko'rsatdi. Xususan, so'nggi uch yil (2021 – 2023-yillar) mobaynida mazkur yo'nalishda 25 mingga yaqin jinoyat ishlari qo'zg'atilib, 17 mingdan ortiq shaxslar jinoyi javobgarlikka tortilgan. E'tibor qaratib, shundan 5 mingga yaqini 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar hisoblanadi.

Tahlillarga ko'ra narkojinoyat sodir etgan yoshlarning soni yildan-yilga o'sib bormoqda. Xususan, 2021-yilda bu boradagi jinoyatlarda yoshlarning ulushi 23 foiz, 2022-yilda 24,6 foiz bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 31,2 foizni tashkil qilgan. Tobora gazak otayotgan bu muammoga qarshi zudlik bilan choralar ko'rilmasa, ertaga kech bo'ladi.

Shu bois mazkur dolzarb masala qo'mita tomonidan Senatning 52-yalpi majlisi muhokamasiga olib chiqildi va hukumatdan mazkur muammoni jiddiy nazoratga olish hamda bu borada ta'sirchan choralar ko'rish so'raldi.

Vazirlar Mahkamasi mas'ullari o'z vaqtida masalaga e'tibor qaratib, qo'mita bilan hamkorlikda faoliyat olib bordi. Jumladan, qo'mita huzurida Ishchi guruhning tezkor yig'ilishi o'tkazildi. Unda mas'ul vazirlar va idoralar mutasaddilari, ekspertlar hamda Yoshlar parlamenti a'zolari qatnashdi.

Yig'ilishda mutasaddilarga yoshlar va bolalar o'rtasida giyohvandlik hamda psixotrop moddalar iste'molining oldini olish, ularning ruhiy salomatligini mustahkamlash yuzasidan vazifalar belgilab berildi.

Ular ijrosi doirasida mas'ul tashkilotlar tomonidan qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, internet orqali giyohvandlik va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasi ortib borayotgani sababli ushbu

huquqbuzarlik uchun javobgarlik masalasi qayta ko'rib chiqildi. Xususan, bunday moddalarni targ'ib qiluvchi materiallarni tarqatganlik yoki reklama qilganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi qonun loyihasi tayyorlandi. Agar bu kabi harakatlar ta'lim tashkilotlari hududida sodir etilsa, jinoyi javobgarlikni keltirib chiqarishi belgilandi.

Mazkur qonun Senatning 53-yalpi majlisida ko'rib chiqildi va senatorlar tomonidan bir ovozdan ma'qullandi. Qonunning ijroga qaratilishi biz ko'targan masalaning qisman bo'lsa-da, ijobiy hal etilishiga hissa qo'shadi, albatta.

Bundan tashqari, Prezidentimizning tegishli Farmoni bilan Bosh vazir rahbarligida Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha davlat komissiyasi va uning hududiy komissiyalari tashkil etildi va aniq rejalar asosida faoliyatini yo'lga qo'yildi.

Giyohvandlikka chalingan yoshlarni "mahalla yetitiligi" ko'magida faol ijtimoiy hayotga qaytarishni nazarda tutuvchi yangicha ishlab mexanizmlarini joriy etish choralari ko'rilmogda.

Maktab o'qituvchilari va inspektor-psixologlari tomonidan o'quvchilarning zarari odatlari to'g'risida ota-onalarini xabardor qilib borish tartibi yo'lga qo'yilayapti. Shuningdek, har yili yoshlar tarbiyasiga mas'ul bo'lgan 10 ming nafar xodimning giyohvandlikning ayanchli oqibatlari to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tashkiliy ishlar boshlandi.

Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tomonidan ijtimoiy-emotsional trening o'tkazish bo'yicha trenerlar uchun uslubiy qo'llanma yaratilib, amaliyotga tatbiq etilmogda. Ushbu qo'llanma maktab psixologlari faoliyatida ham juda foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

Ta'kidlash joziki, Senat tomonidan yoshlarning kelajagi uchun xavf solayotgan jiddiy masalaga o'z vaqtida e'tibor qaratildi va tez fursatlarda ta'sirchan choralar ko'rildi.

O'ylaymizki, bu ishlar yoshlar va bolalar o'rtasida giyohvandlik hamda psixotrop moddalar iste'molini bartaraf etishga, bunday noxush holatlarining oldini olishga, pirovardida sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Dilorom TOSHMUHAMEDOVA, Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari.

Xalqimiz orzu-umidlari ro'yobining huquqiy asosi

Soddalikmi, e'tiborsizlikmi, hartugul yurtimizda hujjatsiz uyda yashovchi aholi juda ko'p. Ayniqsa, qishloq sharoitida imoratni qurib, "Shu uy meniki", deb hech qanday hujjat rasmiylashtirmasdan yillar osha yashayotgan yurtdoshlarimiz bor.

Huquqiy hujjatlari yo'q yoki to'liq bo'lmagan, kam emas, ko'p emas, naq 3 million 600 mingdan ortiq xonadonlar mavjud. Bunday holatga qanday yo'l qo'yildi? Nega shu paytga qadar odamlar o'z uy-joyini huquqiy jihatdan rasmiylashtirishga intilishmadi?

Bu oson ish emas. Juda ko'p chigalliklari, murakkab jihatlar bor. Ya'ni uy o'zboshimchalik bilan qurilgan. Yer esa hujjatsiz qurilgan. Bunday uy-joyini qonuniy asosda ro'yxatga olishning esa imkoni yo'q.

Prezidentimiz tomonidan imzolangan "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer

uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi Qonun fuqarolarning ma'lum sabablarga ko'ra qonuniy rasmiylashtirilmagan yer uchastkalariga, qurilgan uy-joylariga nisbatan huquqlarini e'tirof etish borasida anchadan buyon qiyinatayotgan masalalar yechimiga qaratilgani bilan e'tiborga molik.

Xo'sh, bu qonun aholi uchun qanday imtiyoz va yengilliklar yaratadi? Eng avvalo, mazkur qonun asosida o'zboshimchalik bilan egallab olingan yerda imorat solgan shaxslarga o'sha yer va uy rasmiylashtirib beriladi. Qonunda

huquqlarni e'tirof etishning asosiy shartlari ham aniq belgilangan.

Masalan, yer boshqa shaxsga ajratilmagan yoki aksionga chiqarilmagan bo'lishi, yer bo'yicha nizo bo'lmagani, bosh reja talablariga zid emasligi va boshqa omillar hisobga olinadi.

O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga taalluqli ma'lumotlarni va hujjatlarni kelishish Kadastr agentligining avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshiriladi. To'plangan hujjatlarining to'liqligi va qonuniyligi viloyat adliya boshqarmasi tomonidan tekshirib chiqiladi. Ularning natijalari mahalla burchaklari, Kadastr agentligining sayti orqali jamoatchilikka e'lon qilinadi. Qonuniy talablar

bo'yicha ijobiy xulosa berilgan fuqarolarga SMS-xabarnoma yuboriladi.

Mazkur qonun aholi tomonidan uzoq kutilgan muhim hujjat bo'lib, u yillar davomida turli sabablarga ko'ra to'la-to'kis qonuniy hujjatlariga ega bo'lmagan holda qurilgan uy-joylar va yer uchastkalariga nisbatan huquqiy e'tirof etilishiga imkon beradi. Aniqrog' aytganda, noqonuniy yoki to'la hujjat bo'lmagan yer uchastkalari va unda qurilgan bino va inshootlar bo'yicha ammiyot qo'llanilishini nazarda tutadi.

Qonunning ahamiyatli jihati shundaki, unda yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish (tan olish) jarayoni shaffof va korrupsiyadan xoli bo'lishi hamda keng jamoatchilik amalga oshirilayotgan ishlardan

doimo xabardor bo'lishi uchun davlat va jamoatchilik nazoratiga katta urg'u berilgan.

Ushbu masalaga mas'ul bo'lgan davlat idoralari va ularning vazifalari aniq belgilab qo'yilgan. Barcha jarayon Kadastr agentligining avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu – endilikda fuqarolarimiz idorama-idora sarson-sargardon bo'lib yurmeydi, degani.

Mazkur qonun faqat va faqat inson qadr-qimmatini yuksaltirish, odamlarning uzoq yillardan buyon tashvishiga solib kelayotgan muammolarini ijobiy hal qilish, yer uchastkalariga bo'lgan mulk va ijara huquqini e'tirof etishga xizmat qiladi.

Dilbar USMONOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

EL DASTURXONI MA'MURLIGI UCHUN

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan dasturning ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Eshituv

Ta'kidlanganidek, chorvachilik va uning tarmoqlarini yanada rivojlantirish, naschilik ishlarini takomillashtirish, ozuqa bazasini mustahkamlash, veterinariya va chorvachilik sohasini ilim-fan bilan bog'lash hamda raqamlashtirish, chorvachilik mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, o'tgan davrda davlatimiz va hukumatimiz tomonidan berilgan imtiyoz va preferensiyalar natijasida chorvachilik tarmoqlarida ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Sohani rivojlantirish uchun tasdiqlangan normativ hujjatlar va dasturlar asosida so'nggi uch yilda qiymati 22,5 trln. so'mlik 5537 ta loyiha amalga oshirilib, 200 mingdan ko'p doimiy va mavsumiy ish o'rinlari yaratildi.

Shuningdek, ushbu loyihalar doirasida xorijdan qoramollar, qo'y-echkilar olib kelinib, parvarishi yo'lga qo'yildi. Prezidentimizning tegishli qaroriga asosan chorvachilikka ixtisoslashtirilgan tumanlarda 14 ta yirik chorvachilik klasteri tashkil etildi.

Axborotda keltirilishicha, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan chorvachilik subyektlari soni 19 055 taga, naschilik toifasiga kiruvchi xo'jaliklar soni esa 171

taga yetkazildi. E'tiborlisi, davlat tomonidan sohaga berilayotgan imtiyozlar hisobiga bugun mamlakat aholisining 9,8 mln. nafari (umumi aholining 27 foizi) chorvachilik bilan shug'ullanmoqda. Eng muhimi, ushbu soha ularning asosiy daromad manbasiga aylangan.

Eshituv davomida veterinariya va chorvachilikni ilim-fan bilan bog'lash borasida olib borilayotgan ishlar yuzasidan ham batafsil ma'lumot berildi. Sohani rivojlantirishda mahsulot yetishtirish, ishlab chiqarish, qayta ishlab va realizatsiya qilishda "Xo'jalikdan – dasturxongacha" tamoyili asosida mexanizm yo'lga qo'yilgan, oldin bo'lmagan vertikal boshqaruv tizimi tashkil etilgan.

Munozaralar chog'ida deputatlar sohada amalga oshirilgan ishlarni e'tirof etib, qo'mita tomonidan chorvachilik mahsulotlarini eksport qilish borasida qanday chora-tadbirlar olib borilayotganini so'radi. Mutasaddilarning aytishicha, veterinariya xizmati nazorati ostidagi 46 turdagi tovarlar 60 dan ortiq davlatlarga eksport qilinmoqda. Deputatlar bu boradagi ishlarni ham ijobiy baholagan holda, chorvachilik ozuqa bazasini mustahkamlash bo'yicha qo'mita tomonidan qanday ishlar olib borilayotganini bilgan qiziqdi.

Ma'lum qilinganidek,

chorva mollari ozuqa bazasini mustahkamlash uchun ajratilgan ekin maydonlaridan samarali foydalanish maqsadida har bir gektar maydondan uch martagacha hosil olish texnologiyasi joriy etilgan. Jumladan, chorva ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida 430,2 ming gektar maydonga bahorgi ozuqa ekinlari va g'alladan bo'shagan 244 ming gektar maydonga takroriy makkajo'xori ekilgan. Ushbu maydonlardan yil yakuniga qadar 26 mln. tonna dag'al va shirali ozuqa jam'ariladi.

Bundan tashqari, zamonaviy "gidroponika" texnologiyasi asosida ozuqa ishlab chiqarish joriy etib kelinmoqda. O'tgan uch yil mobaynida chorvachilik subyektlarida mazkur usul bilan 797 ta ozuqa yetishtirish yo'lga qo'yildi. Yig'ilishda deputatlar kelgusida bu yo'nalishdagi islohotlarni izchil davom ettirish, chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini yanada takomillashtirish, ozuqa bazasini mustahkamlash, veterinariya nazoratini kuchaytirish va veterinariya xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan qator taktik va tavsiyalar berdi.

Yakunda kun tartibidagi masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

IQLIM O'ZGARISHI OQIBATLARINI YUMSHATISH VA UNGA MOSLASHISH ZARURATI

Iqlim o'zgarishi insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri. Bu borada o'z vaqtida choralar ko'rmaslik va atmosferada "issiqxona gazlari" miqdorining bundan keyin ham ko'payishi oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Fikr

Davlatimiz rahbarining shu yil 23-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashi tashkil etish to'g'risida"dagi Farmoni iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarni samarali hal etish, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo'yicha yagona davlat siyosatini shakllantirish, uning ijrosini ta'minlash, Parij bitimi doirasida mamlakatimiz tomonidan qabul qilingan majburiyatlarini amalga oshirishda muhim tarixiy hujjat bo'ldi.

Mazkur hujjat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish masalalari bo'yicha eng yuqori maslahat organi – Iqlim kengashi ta'sis etildi. Bunday nufuzli kengashning tashkil qilinishi bilan global iqlim o'zgarishi sharoitlarida yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning oldini olish, oqibatlarini yumshatish borasida amalga oshirilayotgan ishlariga e'tibor yanada kuchayadi.

Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo'yicha milliy strategiyani hamda ushbu yo'nalishda yagona davlat siyosatini shakllantirish, uni samarali amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirish, Parij bitimidan kelib chiqadigan O'zbekiston Respublikasining majburiyatlarini bajarilishi monitoringini yuritish, bu borada ustuvor yo'nalishlarni belgilash kabi bir qator masalalar Iqlim kengashining asosiy vazifalari sifatida belgilab berildi.

Shu o'rinda yuqorida aytilgan vazifalar yuzasidan mamlakatimizda salmoqli ishlar amalga oshirilayotganini e'tirof etish lozim. Jumladan, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish

va unga moslashish masalalariga taalluqli qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Shu bilan birga, davlatimiz rahbarining bu boradagi tashabbuslari jahon hamjamiyati tomonidan to'la qo'llab-quvvatlanmoqda.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan qator vazifalar ham yurtimizda iqlim o'zgarishlarining oldini olish hamda unga moslashishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Birgina 2018-yilning dekabr oyidan hozirgi kunga qadar Orolning qurigan tubida qariyb 2 mln. gektarga yaqin maydonga saksuvul, cherkes, sho'rliq hamda qurg'oqqilikka chidamli boshqa o'simlik urug'larini ekildi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan keng ko'lamma amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida uch yil davomida 630 million tup daraxt va buta ko'chatlari o'tqazildi. Bunday sa'y-harakatlar natijasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar umumiy maydoni 6,321 mln. gektarga yetkazilib, bu mamlakat hududining 14,08 foizini tashkil qilmoqda.

Suv resurslari taqchilligining oldini olish borasida ham aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Birgina 2023-yilda 413 ming gektarda suv tejavchi texnologiyalar, jumladan, 77,3 ming gektarda tomchilatib, 25,4 ming gektarda yong'ir/irabit, 13 ming gektarda diskret sug'orish texnologiyalari joriy qilindi. 222,8 ming gektar qishloq xo'jaligi ekin maydonlari lazer uskunasi yordamida tekislandi.

Yuqorida qayd etilgan ishlar bevosita yoki bilvosita Parij bitimi doirasidagi majburiyatlarining ijrosiga qaratilgani bilan e'tiborga molik. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rinni tutuvchi "yashil" iqtisodiyot, "yashil"

energetika tamoyillarini amaliyotga joriy etish bo'yicha yirik loyihalarga qo'l urilmoqda. Bugungi kunda umumiy quvvati 24 041 MVt bo'lgan 43 ta loyiha doirasida quyosh va shamol elektr stansiyalarini hamda jami quvvati 3165 MVt bo'lgan elektr energiyasini saqlash tizimlarini qurish loyihalari bo'yicha ish olib borilayotir. 2030-yilga borib O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini 25 gigavattga yetkazish ko'rsatki tutilgan. Bu, o'z navbatida, tabiiy resurslarni tejash bilan bir qatorda atmosferaga "issiqxona gazlari" chiqishining oldini olish imkonini beradi.

Yaqin yillarda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushi umumiy energiya balansida 40 foizga yetkazilishi mamlakat aholisi va iqtisodiyot tarmoqlarining elektr energiyaga ehtiyoji ta'minlanishi yanada yaxshilanishiga imkoniyat yaratadi, mintaqada energetik barqarorlikni ta'minlaydi.

Davlatimiz rahbari Farmoni bilan Iqlim kengashi to'g'risidagi nizom, Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo'yicha milliy strategiyani hamda ushbu yo'nalishda yagona davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ham tasdiqlandi. "Yo'l xaritasi"da qayd etilgan 10 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashishga qaratilgan 30 banddan iborat vazifalar ijrosini ta'minlash Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, mutasaddi vazirlik va idoralar, hokimliklar tomonidan amalga oshirilishi belgilab berilgan.

Mazkur vazifalar ijrosi nafaqat mamlakatimiz ekologik xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash, balki mintaqaning iqlim o'zgarishlariga moslashish imkonini beradi.

Xayrullo G'AFFOROV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika "Barkamol avlod" bolalar maktabi tomonidan "Barkamol avlod bolalari" festivaliga start berildi.

ULUG'BEK RASHITOV VA HASANBOY DO'SMATOV – OLIMPIYA O'YINLARINING IKKI KARRA G'OLIBLARI

Taekvondochimimiz dastlab nimchorak final jangida Gongkong vakili Lo Vay Fung raqiblik qildi. Bellashuv 2:0 (12:0, 9:2) hisobida Rashitovning ishonchli g'alabasi bilan yakunlandi. Navbatdagi bosqichda taekvondochimiz xitoylik Liang Yushuayni 2:0 (2:1, 9:2) hisobida taslim etib, musobaqaning yarim finaliga yo'l oldi.

U. Rashitov final yo'llanmasi uchun ispaniyalik Xavyer Peres Polo bilan bahs olib bordi. Shiddatli kechgan qarama-qarshilikda Ulug'bek 2:0 (7:3, 3:3) hisobida g'alaba qozondi. Ikkinchi raunddagi faollik evaziga hamyurtimiz raundni o'z foydasiga hal qildi.

Musobaqaning asosiy final uchrashuvida sportchimiz iordaniyalik raqibi — Zaid Karimni 2:0 (5:4, 3:1) hisobida mag'lubiyatga uchratib, 22 yoshida ikki karra Olimpiya o'yinlari g'olbiga aylandi.



Hasanboy Do'smatov 51 kilogrammgacha vazn toifasida finalgacha bo'lgan bahslarda Puerto-Riko vakili Xuan Manuyel Lopesni, qozog'istonlik Saken Bibosinovni, Kabo Verde bokschisi David de Pinani mag'lubiyatga uchratdi. Hal qiluvchi final uchrashuvida mezbon sportchisi, fransiyalik Billal Bennamaga qarshi jang qildi. Bellashuv to'liq



raundlik jangda Asadxo'ja hakamlar qarori bilan 3:2 hisobida g'alaba qozondi va Olimpiya o'yinlarining final bosqichiga yo'llanmani naqd qildi.

Bokschimiz oltin medal uchun bo'ladigan final bahsida meksikalik Marko Alonso Verdegaga qarshi ringga ko'tarildi.

Bu galgi Olimpiadada ham g'oliblik uchun bahslarga kirishgan +92 kilogramm vazndagi yetakchi bokschimiz Bahodir Jalolov yarimfinal jangini o'tkazdi. U germaniyalik Nelvi Tiafakka qarshi bahs olib bordi. Katta ustunlik bilan harakatlangan B. Jalolov 5:0 hisobida zafar quchib, finalga chiqdi.

Endi u 10-avgust kuni bo'lib o'tadigan bellashuvda Ispaniya boks terma jamoasining ko'zga ko'ringan vakili Ayyub El Essau G'adfa qarshi ringga ko'tarildi. Unga AQSh vakili Omari Jones raqiblik qildi. 3



Anvar ILYASOV olgan suratlari.

Bokschimiz oltin medal uchun bo'ladigan final bahsida meksikalik Marko Alonso Verdegaga qarshi ringga ko'tarildi.

Bu galgi Olimpiadada ham g'oliblik uchun bahslarga kirishgan +92 kilogramm vazndagi yetakchi bokschimiz Bahodir Jalolov yarimfinal jangini o'tkazdi. U germaniyalik Nelvi Tiafakka qarshi bahs olib bordi. Katta ustunlik bilan harakatlangan B. Jalolov 5:0 hisobida zafar quchib, finalga chiqdi.

Endi u 10-avgust kuni bo'lib o'tadigan bellashuvda Ispaniya boks terma jamoasining ko'zga ko'ringan vakili Ayyub El Essau G'adfa qarshi ringga ko'tarildi. Unga AQSh vakili Omari Jones raqiblik qildi. 3

Ma'lumki, G'adfa musobaqaning ilk jangida qozog'istonlik mashhur bokschi

Kamshibek Konkabayevni mag'lub qilgan, yarimfinal bosqichida esa fransiyalik Jamil Abuduni musobaqani tark etishga majbur qilgan edi.

Yana bir bokschimiz Abdumalik Xalokov (-57 kg) yarimfinal uchrashuvida avstraliyalik Charli Senyorni 5:0 hisobida mag'lubiyatga uchratdi va finalga yo'l oldi. Endi sportchimiz oltin medal uchun Jirg'iz Respublikasi vakili Munarbek Seyitbek o'g'li bilan ringga ko'tarildi.

Sport kurashlari bahslarining erkin kurash turida vakilimiz G'ulomjon Abdullayev (-57 kg.) nimchorak finalda ozarbayjonlik Aliabbas Rzazadega qarshi gilamga tushib, 11:4 hisobida ishonchli g'alabaga erishdi. Chorak finalda esa armanistonlik tajribali kurashchi Arsen Xarutunyan 12:5 hisobida taslim etib, yarimfinalga yo'l oldi. Unga bu bosqichda AJSh vakili Spenser Richard Li ro'baro' keldi. Afsuski, G'ulomjon raqibiga 4:14 hisobida imkoniyatni boy berib qo'ydi. Endi erkin kurashchimiz bronza medali uchun bahs olib boradi.

Olimpiya o'yinlarining o'n uchinchi kun yakunlariga ko'ra O'zbekiston sport delegatsiyasi 3 ta oltin va 2 ta bronza — jami 5 medal bilan umumijamoa hisobida 18-pog'onaga ko'tarilib oldi.

Sunnatilla ISLOMOV
("Xalq so'zi").

YANGILIKLAR xabarlar TAFSILOTLAR

Nogironligi bo'lgan shaxslar doimiy e'tiborda

Poytaxtimizda "Favqulodda vaziyatlarda nogironligi bo'lgan shaxslarga yordam ko'rsatish" mavzuida davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz hamda O'zbekiston Nogironlar assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirda favqulodda vaziyatlar davrida nogironligi bo'lgan va boshqa harakati cheklangan shaxslarning yashash hamda sog'liq huquqlarini ta'minlash bo'yicha qilingan ishlar va istiqboldagi rejalarni muhokama etildi.

Ishirokchilar nogironligi bo'lgan shaxslarga favqulodda vaziyatlarda yordam berishga mo'ljallangan xorijiy davlatlarda ishlab chiqarilgan eng yangi jihozlar bilan tanishish imkoniga ega bo'ldi.

Yo'lovchilar uchun kutish hududi kengaytirildi

Toshkent xalqaro aeroporti uchish zalining "steril" hududi yana 2 ming kvadrat metrga kengaytirildi.



Loyihaga ko'ra ushbu zalda o'rindiqlar bilan jihozlangan kutish hududi hamda "fud-kort" tashkil etish ko'zda tutilgan. Hozir yangi zalda mashhur "Caffelito" tarmog'ining qahva burchagi joylashgan bo'lib, u yerda yo'lovchilar uchun issiq va yaxna ichimliklar, shirinliklar, pishiriqlar mavjud.

Qo'shimcha zalning qurilishi umumiy jo'nash zalini "B5"- "B6"- "B7" chiqish yo'laklari bilan ulash imkonini berdi. Bundan tashqari, kelajakda kelayotgan va ketayotgan yo'lovchilar oqimini ajratib turuvchi alohida galereya hamda pastki zaldan bortga chiqish yo'laklarini ochish mumkin bo'ladi.

53 nafar yangi sudyaga guvohnomalar topshirildi

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining navbatdan tashqari majlisi bo'lib o'tdi.

Unda ayrim fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo va tuman (shahar) hamda tumanlararo ma'muriy va iqtisodiy sudlarga ilk bor lavozimga tayinlangan sudyalarning qasamyod qabul qilish marosimi o'tkazildi.

Majlisda Sudyalar oliy kengashining 2024-yil 6 va 7-avgustdagi qarorlariga muvofiq sudyalik lavozimida bo'lshning birinchi besh yillik muddatiga tayinlangan sudyalarning qasamyod ehsiltildi.

Qasamyod qabul qilgan 53 nafar yangi sudyaga guvohnomalar topshirildi.

Demografiyaga oid ma'lumotlardan samarali foydalanish ko'nikmasi

Bo'stonliq tumanida "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun demografik ma'lumotlardan foydalanish" mavzuida demograflar va davlat muassasalari mutaxassislari uchun o'quv o'tkazilmoqda.

BMTning Aholishunoslik jamg'armasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti bilan hamkorlikda tashkil etilgan ushbu tadbirdan ko'zlangan maqsad demografiyaga oid ma'lumotlardan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'lida samarali foydalanish ko'nikmalarini takomillashtirishdan iborat.

"Xalq so'zi".

TAQDIRIMDA ULKAN BURILISH YASAGAN KUN

Yoshligimdan gul parvarishlashni yoqtirardim, bu xislat menga onamdan o'tgan. Ishsiz yurgan paytlarimda nimadir foydali ish qilib, kambag'al yashayotgan oilamga daromad keltirish ilinjida uyda o'stirgan gullarni ko'paytirib, bozorga chiqarishni rejalashtirdim. Shu-shu tomorqamizda gul ko'chatlarini parvarishlab, Jizzax shahridagi dehqon bozorining yo'laklari chetida sota boshladim. Kelgan daromaddan kunda-kunora ro'zg'orga kerakli oziq-ovqat mahsulotlariga choychaqa chiqardi. Harna ro'zg'orga yordam, deganday, shunga ham xursand edim.

Iftixor

Bir kuni bozorda, yo'lak chetida gul sotib o'tirgandim, bozor nazoratchilari yugurib kelib qolishdi. Aytishlaricha, viloyatga yangi kelgan hokim mutasaddilarni ogohlantiray, bozordagi haqiqiy ahvolni ko'zdan kechirib yurganmish. Men bu gaplarga ortiqcha e'tibor bermay, gul sotishda davom etaverdim. Bir payt istarasii issiq bir kishi hamrohleri bilan kelib, gultuvaklarda yashnab turgan gullarni ko'zdan kechira boshladi. Atrofimni to'ldirib sotib o'tirgan gullarim yoqdi shekilli, meni savolga tutdi.

— Gullaringiz juda chiroyli ekan. Ularni o'zingiz yetishtirasizmi?

— Albatta, o'zim. Sababi, gullarni yaxshi ko'raman. Bir kuni qarasam, gullarim juda ko'payib ketibdi. Bir qismini bozorga olib chiqib sotgandim, tuzukkina pul bo'ldi. Shu-shu hovlimizda yetishtirib, bozorga chiqarib sotayman.

— Agar sir bo'lmasa, aytinch, bir parcha yerda yetishtirayotgan gullaringizdan qancha daromad olasiz?

Men shoshib qolib, ro'zg'orning kam-ko'stiga yarasha pul topayotganimni aytdim. Axir arzimagan choychaqa, non puliga yetayotgandi.

— Yaqin kelajakda davlatimiz tomonidan gulchilikka, bog'dorchilikka katta e'tibor qaratiladi. Shahar va qishloqlar gullarga burkanadi. Agar siz qiziqishlaringizni kasb darajasiga chiqarib, gulchilikni kengaytirsangiz, tadbirkorga aylanasiz, daromad ham shunga yarasha bo'ladi. Siz gulchilikni, albatta, kengaytiring. Hali siz bilan yana uchrashamiz. Hamma gullaringizni o'zimiz sotib olamiz, — deya jilmaydi u.

Bozor tashqarisida nazoratchilarning "Ko'tar lashlaringizni" degan sovuq



muomalalaridan dilim og'rib yurgan edi. Bu insonning gaplari menga katta dalda bo'ldi. Gulchilik sohasida o'z bilimimni oshirish uchun boshqalarning tajribalarini astoydil o'rgana boshladim. Odiy qiziqishim maqsadga aylandi. O'sha yillarda Jizzaxda ancha tanilgan gul yetishtiruvchi tadbirkor Fotima Shodiyeva bilan hamkorlikda gul yetishtirishga ixtisoslashtirilgan "Flora gullari" mas'uliyati cheklangan jamiyatini tashkil etdik. Bilim va tajribam yanada osha boshladi. Bozordagi istarali insonning "Agar gulchilikni kengaytirsangiz, tadbirkorga aylanasiz. Hamma gullaringizni o'zimiz sotib olamiz", degan gaplari qanot bag'ishlab, g'ayratim ichimga sig'masdi.

Sharof Rashidov tumani hokimi qabuliga kirib, maqsadimni aytdim, dehqonchilik uchun yer so'radim. Hokim tashabbusimni qo'llab-quvvatlab, 25 gektar yer ajratib berishga rozi bo'ldi. Shunday qilib, "Xolmo'minov Zohid" fermer xo'jaligini tashkil qildik. Avvaliga turli mevali va manzarali daraxtlar, xiyobonbop mayсалar, butalar va

gul ko'chatlari yetishtirdik. Keyinroq xo'jalikda gulchilik bilan bir qatorda paxtachilik, g'allachilik, baliqchilik, parrandachilik (tovuqchilik, bedanachilik), quyonchilik va chorvachilik (echkichilik) sohalariga ham e'tibor qaratib, fermer xo'jaligini ko'p tarmoqli subyektaga aylantirdik.

Bunday ulkan natijalarga o'z-o'zidan erishilgani yo'q, albatta. Tinimsiz izlanish, intilish, mehnat hamda zahmatlar va albatta, qo'llab-quvvatlov men kabi qishloqning oddiy bir ayolini katta tadbirkor darajasiga olib chiqdi.

Butun dunyo xalqlari aziyat chekkan 2020-yilgi pandemiya sharoitida ishsiz aholiga yordam berish maqsadida Ravot mahallasida 75 gektar yangi yer ochib, "Olmachi shunqorlari" ishlab chiqarish kooperativini ta'sischi bo'ldim. Kooperativda 149 nafar yoshga 20 – 25 sotixdan yer

o'z-o'zidan erishilgani yo'q, albatta. Tinimsiz izlanish, intilish, mehnat hamda zahmatlar va albatta, qo'llab-quvvatlov men kabi qishloqning oddiy bir ayolini katta tadbirkor darajasiga olib chiqdi.

— Yaqin kelajakda davlatimiz tomonidan gulchilikka, bog'dorchilikka katta e'tibor qaratiladi. Shahar va qishloqlar gullarga burkanadi. Agar siz qiziqishlaringizni kasb darajasiga chiqarib, gulchilikni kengaytirsangiz, tadbirkorga aylanasiz, daromad ham shunga yarasha bo'ladi. Siz gulchilikni, albatta, kengaytiring. Hali siz bilan yana uchrashamiz. Hamma gullaringizni o'zimiz sotib olamiz, — deya jilmaydi u.

ajratilib, yong'oqzor va boshqa mevali daraxtlardan bog' barpo qilindi. Kooperativ a'zolari murakkab bir vaziyatda egatlar orasida mavsumiy ekinlar ekib, daromad olishdi. Endilikda ular chorvachilik, parrandachilik, quyonchilik bilan ham shug'ullanmoqda. Kooperativdagi ish namunali yo'lga qo'yilgani uchun ularga Yo'yilma qishlog'idan yana 30 gektar yer ajratib berildi.

Keyingi yillarda yana bir yirik loyiha — hudud xotin-qizlarini ish bilan ta'minlash maqsadida "Gulchi

opa tomorqa xizmati" agroklasteriga asos solдик.

Bugungi kunda Sharof Rashidov tumani faoliyat olib borayotgan ushbu agroklasterda xotin-qizlarning 115 nafari doimiy, 200 nafari esa mavsumiy ish bilan ta'minlangan.

Yurtimizdagi xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi tashabbuslarga javoban, "temir daftar" va "yoshlar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarni 12 yo'nalish bo'yicha tadbirkorlikka bepul o'qitish kurslarini yo'lga qo'yganmiz. Hozirgi kunga qadar 2 mingdan ziyod ayollarni turli yo'nalish bo'yicha tadbirkorlik kurslarida o'qitib, ularga faoliyatini yo'lga qo'yishda amaliy yordam berib kelmoqdamiz.

Amalga oshirayotgan ishlarimiz mamlakat miqyosida ijobiy baholaniib, 2024-yildan boshlab "Agrobank" AJ tomonidan grant mablag'lari ajratildi. Mazkur

qoraqalpog' cho'llaridagi unumsiz yerda unumdor tuproq hosil qilishda asqatmoqda. O'z-o'zidan bunday yerda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ham hosildorligi oshadi.

Shu bilan birga, yurtimizda aholi uchun qulayliklar va yosh avlodga yetarli darajada imkoniyatlar yaratib berish bo'yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi yuzasidan viloyatimizning chekka hududida 100 o'rinli maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatini yo'lga qo'ydi.

Mehnatlarim ijobiy baholanib, 2017-yilda "Shuhrat" medali, 2019-yilda "Eng yaxshi tomorqachi" ko'krak nishoni, 2022-yilning mart oyida "Mehnat shuhrati" ordeni bilan, noyabr oyida esa "Eng ko'p ish beruvchi ayol" nominatsiyasida birinchilikni qo'lga kiritib, Prezident sovg'asi — "Jentra" avtomobili bilan taqdirlandim.

Darvoqe, so'zimizning boshida gul ko'chatlari yetishtirishni shunchaki havas bilib, uncha-munchasini bozorga chiqarib yurgan men kabi qishloq qiziga maslahatlar berib, tadbirkorlikka undagan, o'zimga bo'lgan ishonchimni oshirgan kishi kim edi, deb qiziqayotgandirsiz?

O'sha voqeadan yigirma besh yil o'tib, ushbu inson bilan biz yana uchrashdik. Bu voqea avvalgidek tasodifiy emas, "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyida, mukofot topshirish marosimi paytida sodir bo'ldi.

Chorak asr oldin qimmatli maslahatlar bilan menga ishonch va umid bergan, qanot baxsh etgan istarali inson jilmayganicha ko'ksimga "Mehnat shuhrati" ordenini taqib qo'yarkan: "Katta ishlar qilyapsiz, Sizga rahmat!", dedi.

— Siz meni tanisizmi? — dedim hayratimni yashirolmay.

— Men fidoyi insonlarning hammasini taniyman, qadrlayman. Jizzaxliklarga mendan salom aytib qo'ying, — dedi mamnun jilmayib Prezidentimiz...

Sharofat NORIYEVA, Sharof Rashidov tumanidagi "Gulchi opa tomorqa xizmati" klasteri ta'sischi, "Xolmo'minov Zohid" fermer xo'jaligi rahbari.

Sharofat NORIYEVA, Sharof Rashidov tumanidagi "Gulchi opa tomorqa xizmati" klasteri ta'sischi, "Xolmo'minov Zohid" fermer xo'jaligi rahbari.

Sharofat NORIYEVA, Sharof Rashidov tumanidagi "Gulchi opa tomorqa xizmati" klasteri ta'sischi, "Xolmo'minov Zohid" fermer xo'jaligi rahbari.

Sharofat NORIYEVA, Sharof Rashidov tumanidagi "Gulchi opa tomorqa xizmati" klasteri ta'sischi, "Xolmo'minov Zohid" fermer xo'jaligi rahbari.

Sharofat NORIYEVA, Sharof Rashidov tumanidagi "Gulchi opa tomorqa xizmati" klasteri ta'sischi, "Xolmo'minov Zohid" fermer xo'jaligi rahbari.

Sharofat NORIYEVA, Sharof Rashidov tumanidagi "Gulchi opa tomorqa xizmati" klasteri ta'sischi, "Xolmo'minov Zohid" fermer xo'jaligi rahbari.

Sharofat NORIYEVA, Sharof Rashidov tumanidagi "Gulchi opa tomorqa xizmati" klasteri ta'sischi, "Xolmo'minov Zohid" fermer xo'jaligi rahbari.

Sharofat NORIYEVA, Sharof Rashidov tumanidagi "Gulchi opa tomorqa xizmati" klasteri ta'sischi, "Xolmo'minov Zohid" fermer xo'jaligi rahbari.

Sharofat NORIYEVA, Sharof Rashidov tumanidagi "Gulchi opa tomorqa xizmati" klasteri ta'sischi, "Xolmo'minov Zohid" fermer xo'jaligi rahbari.

2024/2025 o'quv yilidan mamlakatimiz talaba-yoshlari o'rtasida "Talabalar ligasi" sport musobaqalarini tizimli o'tkazish yo'lga qo'yiladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-842. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksak olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxonona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Isaonov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir T. Eshboyev.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 22.10 Topshirildi — 00.50 1 2 3 4 5 6